

## 二字熟語 [NIJI JYUKUGO] IKKI IYEROGFLIFLI SO‘ZLARNING ZAMONAVIY YAPON TILI TIZIMIDAGI O‘RNI

**Berdikulova Nigina Mirsoliyevna**

*Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezis zamonaviy yapon tili leksik tizimida ikki iyeroglifli so‘zlar — 二字熟語[niji jukugo] ning o‘rni va ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ikki iyeroglifli birliklarning kelib chiqishi, fonetik xususiyatlari, semantik tuzilishi hamda rasmiy-yozma uslubdagi qo‘llanilish chastotasi tahlil qilinadi. Korpus va leksik-statistik tadqiqotlar asosida 二字熟語[niji jukugo] birliklarining ilmiy, huquqiy va ijtimoiy matnlardagi yetakchi roli ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ularning madaniy-konseptual mazmuni va terminologik birliklar yaratishdagi mahsuldorligi yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *二字熟語, zamonaviy yapon tili, yapon tili leksik tizimi, ikki iyeroglifli so‘zlar, on‘yomi, semantik shaffoflik, rasmiy-yozma uslub, korpus tahlili.*

Zamonaviy yapon tili leksik tizimida ikki iyeroglifli so‘zlar — 二字熟語 [niji jukugo] alohida va yetakchi o‘rin egallaydi. Yapon tilidagi izohli, o‘quv va akademik lug‘atlarda sarlavha birliklarning katta qismi aynan ikki iyeroglifli murakkab birliklardan iborat ekanligi qayd etilgan. Ushbu holat yapon tilida abstrakt tushunchalarni, ijtimoiy hodisalarni va ilmiy kategoriyalarni ifodalashda ikki iyeroglifli so‘zlar asosiy leksik model sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. 二字熟語[niji jukugo] ikki iyeroglifli so‘z birliklari, asosan, xitoy tilidan kirib kelgan iyerogliflarga tayanib yaratilgan bo‘lib, yapon yozma madaniyatining tarixiy rivoji bilan uzviy bog‘liqdir.

Yapon tili taraqqiyotida xitoy yozuvi va leksikasining ta‘siri nihoyatda kuchli bo‘lib, ayniqsa, yozma nutq shakllangan davrlarda xitoycha iyerogliflar orqali yangi tushunchalarni ifodalash zarurati yuzaga kelgan va bu jarayonda ikki iyeroglifli birliklar samarali til vositasi sifatida shakllanganligi manbalarda qayd etilgan. Shu sababli 二字熟語 [niji jukugo] birliklarining aksariyati 音読み[on‘yomi], ya‘ni iyerogliflarni xitoycha o‘qilishi asosida talaffuz qilish tartibi yuzaga kelgan. Bu holat ularning tarixiy kelib chiqishini va yapon tilining yozma uslubida tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi. 音読み[on‘yomi] iyerogliflarning xitoycha o‘qilishi asosidagi birliklar bugungi kunda ham qo‘llanilishi jihatidan rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, qonun matnlari va ommaviy axborot vositalarida ustunlik qilishini kuzatishimiz mumkin<sup>1</sup>.

Ayrim matnlar korpusi va leksik-statistik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ilmiy va rasmiy uslubdagi matnlarda ikki iyeroglifli so‘zlarning qo‘llanilish chastotasi nihoyatda yuqori ekani

<sup>1</sup> Tamaoka, K., & Altmann, G. (2004). Symmetry of Japanese kanji lexical productivity. *Glottometrics*, 7, 68–88.

aniqlangan<sup>2</sup>. Matnlar korpusi real nutqdan olingan katta hajmdagi yozma yoki og‘zaki matnlar majmuasi bo‘lib, til birliklarining real qo‘llanishini statistik va funksional jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Korpus asosidagi tadqiqotlarga ko‘ra, 二字熟語 [niji jukugo] ikki iyeroglifli so‘z birliklari mavhum va umumlashtirilgan tushunchalarni ixcham, aniq va standart shaklda ifodalash imkoniga ega. Shu jihatdan, ular zamonaviy yapon tilining rasmiy-yozma registrini belgilovchi asosiy leksik vositalardan biri hisoblanadi.

Ikki iyeroglifli so‘zlarning muhim jihatlaridan biri ularning semantik tuzilishidir. Ayrim 二字熟語 [niji jukugo] birliklarida tarkibiy iyerogliflarning lug‘aviy ma‘nosi umumiy ma‘noni tushunishda muhim ahamiyatga ega va bunday birliklar semantik jihatdan nisbatan shaffof bo‘ladi. Biroq boshqa bir qator so‘zlarda umumiy ma‘no alohida iyerogliflarning oddiy yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Yapon tilishunosi Honda Yumiko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aynan shu semantik shaffoflik masalasiga e‘tibor qaratilib, ikki iyeroglifli so‘zlar semantik jihatdan turlicha darajada tushunarli bo‘lishi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Bu yondashuv 二字熟語 [niji jukugo] ikki iyeroglifli so‘z birliklarining semantik murakkabligini ochib berish bilan birga, ularni o‘rganish va tarjima qilish jarayonida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, 二字熟語 [niji jukugo] ikki iyeroglifli so‘z birliklari faqat semantik mazmun bilangina cheklanib qolmay, madaniy va konseptual konnotatsiyalarni ham o‘zida mujassamlashtiradi<sup>3</sup>. Ularning ko‘pchiligi konfutsiylik, buddaviylik va an‘anaviy Sharq falsafasi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni ifodalaydi. Bunday birliklar yapon jamiyatida shakllangan axloqiy me‘yorlar, ijtimoiy munosabatlar va dunyoqarash bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, til orqali madaniy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishida muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, 二字熟語 [niji jukugo] ikki iyeroglifli so‘z birliklarini o‘rganish yapon tilining nafaqat leksik, balki madaniy qatlamini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Zamonaviy yapon tilida ikki iyeroglifli so‘zlar terminologik birliklar yaratishda ham faol qo‘llaniladi. Fan, texnika, iqtisod, siyosat va ijtimoiy sohalarda yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar ko‘pincha aynan 二字熟語 [niji jukugo] ikki iyeroglifli so‘z birliklari modeli asosida nomlanadi. Ushbu holat ikki iyeroglifli birliklarning yapon tilidagi so‘z yasash tizimida mahsuldor model ekanligini ko‘rsatadi. Ular ixchamligi, rasmiy uslubga mosligi va semantik sig‘imdorligi bilan boshqa turdagi birliklardan ajralib turadi.

<sup>2</sup> Ogawa, T., Saito, H., & Yanase, Y. (2005) The combinability of 2965 kanji characters of Japanese Industrial Standard on formation of two-kanji compound words. *Japanese Journal of Psychology*, 76(3), 269–275.

<sup>3</sup> Kawakami, M. (2002) Effects of neighborhood size and kanji character frequency on lexical decision of Japanese kanji compound words. *Japanese Journal of Psychology*, 73(4), 346–351.



## Foydalangan adabiyotlar

1. Achilova O.F. Yapon va o'zbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari: Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2025. – 217 b.
2. Achilova O.F. Yapon va o'zbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari: Avtoref.Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2025. – 37 b.
3. Honda, Y. (2003). Niji jukugo no imi kaiseki to ninchi 二字熟語の意味解析と認知. Tokyo: Hituzi Shobo.
4. Kawakami, M. (2002). Effects of neighborhood size and kanji character frequency on lexical decision of Japanese kanji compound words. *Japanese Journal of Psychology*, 73(4), 346–351.
5. Ogawa, T., Saito, H., & Yanase, Y. (2005). The combinability of 2965 kanji characters of Japanese Industrial Standard on formation of two-kanji compound words. *Japanese Journal of Psychology*, 76(3), 269–275.
6. Tamaoka, K., & Altmann, G. (2004). Symmetry of Japanese kanji lexical productivity. *Glottometrics*, 7, 68–88.